

O'ZBEK ADABIY TILI PUBLITSISTIK USLUBINING SHAKLLANISHI

Robiya Vaxobjonova

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: robiyavaxobjonova@gmail.com+998958325255

Annotatsiya. Mazkur maqolada publitsistik uslubning O'rta Osiyo, xususan, O'zbekistonda vujudga kelishi hamda uning shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari yoritilgan. Qolaversa, publitsistikaga o'z xissasini qo'shgan o'zbek millaparvar ziyolilari faoliyatlari misolida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: publitsistika, og'zaki va yozma ko'rinishi, jadidchilik, matbuot, reportaj, notiqlik, gazeta, jurnal, maqola, ocherk, felyeton, pamflet,

Аннотация. В данной статье описывается возникновение публицистического стиля в Центральной Азии, особенно в Узбекистане, а также этапы его становления и развития. Кроме того, это раскрывается на примере деятельности узбекских интеллектуалов- националистов, внесших свой вклад в журналистику.

Ключевые слова: публицистика, устное и письменное выступление, журналистика, пресса, репортаж, публичное выступление, газета, журнал, статья, эссе.

Abstract. This article describes the emergence of journalistic style in Central Asia, especially in Uzbekistan, as well as the stages of its formation and development. In addition, it is revealed on the example of the activities of Uzbek nationalist intellectuals who contributed to journalism.

Key words: publicism, oral and written presentation, journalism, press, reporting, public speaking, newspaper, magazine, article, essay.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Publitsistika – davrning siyosiy, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy va boshqa muhim masalalarini o'zida aks ettiruvchi adabiy ijod turi. Uning asosiy vazifasi ijtimoiy fikr uyg'otish, ommaviy ongni o'stirish, voqea-hodisalardan xabardor qilish, shaxsiy munosabatni

shakllantirishdan iboratdir. U o'zbek adabiy tilida nutq uslubi sifatida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida paydo bo'ldi. Bu davrda o'zbek tilida gazetalar chop etila boshladi. Nashriyot va vaqtli matbuot ishlari yanada rivojlanib ketdi hamda o'zbek yozuvchilari badiiy publitsistika janrida ijod qildilar. Vaqtli matbuot va nashriyotda zamonaviy ijtimoiy- siyosiy masalalarga bag'ishlangan ko'plab materiallar bosila boshladi. Radio va televideniya orqali siyosat hamda ijtimoiy turmush masalalariga doir ma'ruza va suhbatlar muntazam eshittirildi, ko'rsatildi. Bularning hammasi publitsistik uslubning taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. [26-bet] Publitsistika hozirgi kunda janr jihatidan xabar, reportaj, hisobot, maqola, ocherk, felyeton, pamflet, esse, ochiq xat kabi turlarga bo'linadi. Bugungi kungacha adabiy tilimizning bu uslubi atroflicha o'rganildi, tadqiq qilindi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili. Tadqiq etilayotgan mavzu A.Abdusaidov, A. Boboyeva, R. Muhammadiyev, S. Kurbanova, O. Tog'ayev, M. Cherepaxov, T. Kurbanov, E. Qilichev, M. Xalilova, E. Proxorov, V. Belinskiy, Z. Abdurashidov, N. Egamqulov, F. Mo'minov, A.Nurmatov, V. Voroshilov, M. Xudoyqulov kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida atroflicha o'rganilgan. Ushbu maqolada tavsifiy, tarixiy-qiyosiy, tasniflash, tahlil metodlaridan foydalanildi.

Muammoni hal qilish yo'llari. Jahon tarixidan ma'lumki, ibtidoiy davrlarda o'zaro xabar almashish vositasi sifatida olovdan foydalanilgan bo'lsa, keying davrlarga kelib kaptar(xabarchi qushlar), Asta sekinlik bilan bo'lsa-da, o'zaro muloqot qilish, jamiyatni xabardor qilish uchun og'zaki – notiqlik usulidan keng foydalanildi. Jumladan, Qadimgi Yunoniston tarixida Suqrot, Gomer, Aristotel, Demosfen kabi chuqur bilim sohiblari bu yo'lda yetakchi hisoblangan.

O'rta Osiyo, xususan, bizning yurtimizda publitsistika ancha qadimiy asosga ega. Kaykovusning "Qobusnoma", A.Navoiyning "Mahbub ul- qulub", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher " asarlarini publitsistik ocherklar qatoriga kiritishadi. Navoiy o'z davrining buyuk mutafakkiri, so'z ustasi

Bo'lish bilan birga, kishilarga yaxshi so'z bilan ta'sir eta bilish san'atini juda ham qadrllovchi, ulug'lovchi, bunday san'at ustalariga e'tibor qilib..... yaxshi

nutqning ta'siri va tarbiyasini ham his etadi. [5.74]. Bizningcha, A.Navoiydan ham oldin yashab o'tgan buyuk mutafakkir Imom Al-Buxoriyning buyuk merosini ham publitsistikaning yozma ko'rinishi sifatida o'rganishimiz mumkin. Chunki "Al-jome' as-sahih", "Al-adab al-mufrad" asarlaridagi hadislarini to'plash jarayonida turf axil insonlar bilan suhbatlashib ularning bergan ma'lumotlarini yig'ib borganlar(reportaj).

Keyingi davrlarga kelib, ya'ni mustamlaka davrida ijtimoiy-siyosiy tuzum, madaniy-marifiy turmushdagi o'zgarishlar natijasida o'zbek publitsistikasi yangi bosqichga o'tdi. Bu o'z navbatida XX asr boshlarida mamlakatda yuzaga kelgan jadidchilik harakati bilan bog'liq. Chunonchi, "Taraqqiy", "Xurshid", "Sadoyi Farg'ona", "Najot", "Samarqand", "Hurriyat" kabi gazetalar, "Oyna", "Chayon" kabi jurnallar Turkiston tarixida katta o'rin egalladi. [7. 17]. Bu o'rinda matbuot alohida ahamiyat kasb etib, Abdulhamid Cho'lpon ta'biri bilan aytganda, "Matbuot yettinchi davlatdir". Bu kunda matbuotning ahamiyati buyukdir. Xususan, Sharq xalqi bu kun matbuotning ahamiyatini tushunmishdir", -deydi. Shu o'rinda bir savol tug'iladi: milliy matbuot, jurnalistika va bosma nashr qachon paydo bo'ldi degan savol tug'iladi. Tarixda ilk Chor Rossiyasining mustabid mustamlaka zulmiga qarshi paydo bo'lib rivojlangan tinch demokratik milliy madaniy-ma'rifiy harakat – jadidchilikning yutug'i sifatida paydo bo'ldi. [6. 119].

Jadidchilik ta'sirida, ya'ni XX asr boshlarida 2 ta tarixiy yangilik – milliy jurnalistika va bosma nashr ilk bor paydo bo'ldi. Shu o'rinda aytish mumkinki, ommaviy axborot vositalari, asosan, 4 ko'rinishdan: gazeta, jurnallar, radio va televideniyadan iborat. XX asr boshlariga nazar solsak, Turkistonda (ya'ni O'zbekistonda) gazeta yetakchi o'rinni egallagan. Turkistonda paydo bo'lgan ilk gazeta 1870- yildan chiqa boshlagan "Turkistanskie vedemosti" va uning o'zbek tilidagi ilovasi – "Turkiston viloyati gazetisi" edi. Undan so'ng esa Ivan Gerey muharrirligida o'zbek tilida "O'rta Osiyo umrguzaronligi" gazetasi, keyin esa u Ismoil Gabidov (Ismoil Obidov) boshchiligidagi "Taraqqiy" nomi bilan chop etildi. "Taraqqiy" o'ziga dushman bilgan rus hukumati 1906-yil 21-avgustda 20-sonini musodara qilib tugatdi. Shundan so'ng Munavvar qori Abdurashidxonov rasmiy

ruxsat olib 1906-yil 6-sentabrda o'zi muharrir bo'lib "Xurshid" gazetasini chiqardi. 1917-yil Fevral inqilobidan so'ng "Turkiston viloyati gazetasi" Munavvar qori qo'liga o'tib "Najot" deb qayta nomlaydi. Undan so'ng "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona", "Samarqand" kabi gazetalar nashr etilgan bo'lsa, "Olosh", "Kengash", Sho'roi Islom", "Turon", "Turk eli", "Ulug' Turkiston", "El bayrog'i", "Ravnaq ul-islom", "Ozod", "Sadoyi taronchi" kabi gazetalar ham chiqqani manbalarda keltirilgan.[9] Bu gazetalarni nashr etishda millat fidoiylari Munavvar qori, M.Behbudiy, A.Avloniy, Fitrat, A.Cho'lpon va boshqalar jonbozlik ko'rsatdi.

Yuqorida aytganimizdek, publitsistik uslubning vositasi hisoblangan jurnallar ham Turkistonda ilk bor XX asr boshlarida vujudga kela boshladi. Bular Samarqandda chiqa boshlagan "Oyina" Toshkentda "Al-Isloh", H.H.Niyoziy rahbarligida "Hurriyat", Toshkentda "Chayon", "Cho'l chayoni" degan hajviy jurnallar ham chiqdi. Bundan tashqari, "Sadoq", "Ishchilar dunyosi", "Izhor ul-Haq", "Bayon ul-Haq", "Yurt", "Kengash" kabi jurnallar ham nashr etilgan.[9] Keyingi davrlarga kelib, ya'ni oktabr o'zgarishlaridan so'ng "Inqilob", "Yer yuzi", "Mushtum", keyinchalik "Sharq yulduzi", "Yoshlik", "Guliston" jurnallari ham chiqarila boshlandi. O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng ko'plab yo'nalishlarda bo'lgani kabi yangi jurnallar chop etildi. Jumladan, "Tafakkur", "Muloqot", "Jahon adabiyoti", "Gulxan", "Saodat", "G'uncha" singari jurnallar shular jumlasidandir. Junalar publitsistikaning yetakchi vositasi bo'lishiga qaramasdan, "O'zbek tili stilistikasi" kitobida (S.Sultonsaidova, O'.Sharipova) publitsistikaning janrlari 3 guruhga: 1) gazeta, 2) og'zaki publitsistika, 3) radio va televideniya turlariga bo'linadi. Bundan ko'rinadiki, ushbu kitobda jurnallar publitsistik uslubning janri sifatida ko'rsatilmagan. Shu o'rinda publitsistikaning ayrim janrlariga to'xtalishni joiz deb topdik. **Maqola** – publitsistik janr sifatida ijtimoiy hayot hodisalari chuqur tahlil qilinib, siyosat, iqtisodiyot, fan-texnika, va madaniyat sohasidagi yangiliklar ommaga yetkaziladi, kamchiliklar esa tanqid qilinadi. Publitsistikada bosh maqola, nazariy, targ'ibot maqola, muammoli maqola kabi turlari keng qo'llanadi. O'zbekistonda maqola janri tarixi, asosan, "Turkiston viloyati gazetasi" ga borib taqaladi. **Ocherk** – publitsistikaning yetakchi

janrlaridan biri bo'lib, haqiqiy hayotda ro'y bergan voqea-hodisalarni yoritishi, hujjatlarga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Ushbu janr o'zbek adabiyotiga XX asrning 20-yillarida kirib kelgan bo'la ham, chuqur tarixiy ildizga ega. Xususan, Kultegin yodnomalari, "Boburnoma" asarlarida ham ocherkka xos hujjatlar seziladi. Ocherk janrining shakllanishiga A.Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, G'.G'ulom, A.Qahhor singari adiblar katta xissa qo'shganlar. **Felyeton** – ijtimoiy hayot masalalarini satira va yumor vositasi bilan, ya'ni ijtimoiy kulgi asosida yoritadi. Ushbu janrning asosiy vazifasi jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy tomonlarini qamrab olgan holda aks ettirish, kamchilik, nuqsonlarni ijtimoiy illatlarni fosh etishdir. **Pamflet** – biror siyosiy tuzum, ijtimoiy voqelik, ma'lum bir ijtimoiy guruhlar faoliyatini, xatti-harakatlarini fosh qiluvchi hajviy- tanqidiy publitsistik asardir. Ushbu janrda jamiyatdagi turli shaxslar karakteridagi nuqsonlar achchiq kinoya, o'tkir sarkazm bilan yoritiladi. **Esse** – uncha katta bo'lmagan nasriy asar bo'lib, erkin kompozitsiya asosiga quriladigan, tuzilish jihatidan ixcham nasriyasar bo'lib, badiiy-publitsistik janrning bir turi. Essening maqsadi – o'quvchini faol fikrlashga o'rgatish, o'z mulohazalarini dalillashga yo'naltirish, til unsurlaridan o'rinli foydalanish orqali fikrni to'g'ri yetkazib berish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Unda ma'lum bir shaxs yoki narsa, voqea-hodisaga subyektiv munosabat bildiriladi. Mustaqil janr sifatida A.Montel ijodida ko'zga tashlanadi. O'zbek adabiyotida esa XX asrning 90- yillaridan ko'zga tashlanadi. **Reportaj** – bu janr informatsion xususiyatga ega bo'lib, bu janrda jurnalist o'zi guvoh bo'lgan voqea-hodisalarni zudlik bilan yetkazib beradi. Bunda journalist voqea-hodisalarni o'z tilidan gapirib beradi. Reportajda lavha, suhbat, hisobot va boshqalar ham qo'shib ketishi mumkin.

Publitsistik uslubning yana bir yo'nalishi sifatida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ommaviy uslubning yangi turi – radio kirib keldi. Radio yunoncha "radius" – nur, "radio" – nur taratmoq degan ma'noni bildiradi (1895-yilda A.S.Popov ixtiro qilgan). O'zbekistondagi radiokanal – O'rta Osiyodagi birinchisi bo'lib tashkil etilgan Radiosansiyadir. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi

1920-yilda tashkil etildi. Radio garchi publitsistikaning og'zaki nutqqa asoslangan turi bo'lsa-da, o'z faoliyatida matbuot qonuniyatlariga rioya qiladi. Ya'ni radio ham ijtimoiy hayotni aks ettiradi, jamiyatga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Radioning ham bosh maqsadi publitsistikaning boshqa turlari singari ijtimoiy ma'lumot tarqatishdir.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. Yuqoridagi ma'lumotlardan ayon bo'ladiki, bizning yurtimizda ancha yillar muqaddam paydo bo'lgan bo'lsa-da, adabiy uslub sifatida shakllanishi, taraqqiyoti XIX asr oxiri – XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Chunki bu davrda tuzumga qarshi kurash, omma ongini, ijtimoiy taffakurni o'stirish, ma'naviy jihatdan rivojlanish asosiy maqsadga aylangan edi. Bu yo'lda jadid ziyolilarimiz o'z moli va jonini xatarga qo'yib bo'lsa-da, fidokorlik ko'rsatdilar. Bugungi kunga kelib publitsistika rivojlanishda eng yuksak cho'qqiga chiqdi deya olamiz. Chunki publitsistikaning yangi vositalari, janrlari vujudga keldi. Gazeta, jurnal, radio, televideniya yetakchi o'rinda turgan bo'lsa, hozirda ijtimoiy tarmoqlar: instagramm, telegram, fasebook, watsapp va boshqalar faol hamda keng qo'llanilmoqda. Bundan ko'rinadiki, publitsistika jamiyat bilan birgalikda shakllanadi va doim taraqqiy etib boradi.

FOYADALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdusaidov A. Gazeta janrlarining til xususiyatlari: Filol.fan. doktori...dis.avtoref. – Toshkent, 2005.
2. Abdusaidov A. Gazeta janrlarining tili va uslubi. – Samarqand, 2001.
3. Abdusaidov A. Gazeta tilining leksik-stilistik xususiyatlari. – Samarqand, 1991.
4. Madaminova G. Publitsistika uslubida maqol va matallarning ifodalanish xususiyatlari.// Journal of universal science research. 2017. 594-599-betlar.
5. Odilov Y. Publitsistik matn va leksik taraqqiyot.// "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 2020.
5. Sultonsaidova S, Sharipova O'. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent, 2009.
6. Xudoyqulov M. Jurnalistikaga kirish(o'quv qo'llanma). Toshkent-2005.

7. Xolboyev S. Jadidlar. Munavvar qori Abdurashidxonov (risola). – Toshkent, 2022.
8. Xalilova M. O‘zbek tili stilistikasi asoslari. – Farg‘ona, 2009.
9. Cho‘lpon. Turkistonda matbuot. // Fuqaro fuyuzati. – Boku, 1920.